

Ijro intizomiga rioya etish ishimizda unum va sifat bo'lishini ta'minlaydi

Eng avvalo, har bir rahbar ish faoliyatida, kundalik turmushida mas'uliyatni his etsa, kasbiga bo'lgan fidoyilik, bilim va malakasini ishga solib amalga oshirilayotgan islohotlarning **faol tashabbuskori** va **ijrochisiga** aylansagina, **intizom** o'z so'zini aytadi, alabatta. Shundagina ishda unum, amalga oshirilayotgan islohotlarda natija bo'ladi.

Zero, Surxondaryo bugun har jihatdan rivojlanib, kechagi qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hududdan sanoati rivojlanib borayotgan, barcha sohalarda yangilanish va bunyodkorlik sari yuz tutib, xalqaro munosabatlarda ham peshqadam hududga aylanib bormoqda. Erishilayotgan bu kabi ulkan yutuq va natijalar zamirida, qo'lga kiritilayotgan marralarda ijro intizomiga to'laqonli amal qilishni viloyatda faoliyat yuritayotgan har bir mas'ul rahbar o'zining pirovard maqsadi deb bilishi natijasidir. **Ijro intizomi** bu shaxsiy mas'uliyat, "temir intizom", kasbga bo'lgan mehr va professional mahoratdir.

Bugungi kunda **Muhtaram Prezidentimiz** tashabbuslari bilan olib borilayotgan odilona va oqilona siyosat tufayli erishilayotgan natjalarning tub negizida yotgan eng muhim va dolzarb masala ham shubhasiz ijro intizomiga so'zsiz rioya etish sanaladi. Qolaversa, mamlakatimizda chiqarilayotgan Qonun, Farmon, qaror va O'zbekiston taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan islohotlarning hayotga tatbiq etilishida, aholining farovon turmushini ta'minlash, barcha sohalarda ilg'or natjalarga erishishda ham **ijro intizomi** muhim o'rinnegi egallaydi.

Respublikamizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar hamda qonun hujjatlarining ijrosini o'z vaqtida va munosib tarzda real hayotga tatbiq etish **har bir rahbar va xodimning burchi** hamda **vazifasi** hisoblanadi.

Qonunchilik hujjatlari ijrosini tashkil etish va samarali monitoring tizimini yaratish hamda belgilangan maqsadlarga erishish bo'yicha barcha darajadagi rahbarlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish maqsadida muhtaram Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi **"Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**gi 6166-sont Farmonining qabul qilinganligi ham davlat idoralari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash imkonini berdi.

Bu esa har bir rahbar kadrning ijro intizomiga amal qilishi, ishda mas'uliyat bilan yondashib, amalga oshirilayotgan ishlarni tizimli nazorat qilish bo'yicha aniq vazifa belgilandi. Mazkur Farmonga asosan viloyatimizda ham "Yo'l xarita"sigi muvofiq ishslash tizimi yo'lga qo'yilib, ularning natijasi monitoring qilib borilmoqda.

Zero, mamlakat taraqqiyoti, rivojlanish va yangilanishlar jarayonida hayotga tatbiq etilayotgan har bir muhim hujjatda belgilangan chora-tadbirlar ijrosini ta'minlash doimo diqqat markazimizdadir. Qolaversa, davlatimiz Rahbarining e'tibori va amalga oshirilayotgan islohotlar samarasida viloyatda ko'plab qurilish, buniyodkorlik, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borildi.

Barcha sohalarda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasini har bir mahalla va xonadongacha yetkazish, topshiriqlar ijrosini ta'minlashni, endilikda esa "**fuqarobay**" ishslash tizimini joriy etib, har bir fuqaroning hayotda o'z o'rnnini topishi, daromad manbayiga ega bo'lib jamiyatning faol fuqarosiga aylantirish orqali, aholini kambag'allikdan chiqarishni hududagi har bir mas'ul rahbar birinchi galagini vazifamizga aylantirib olganimiz.

Murojaatlар манзилли ҳал этилмоқда

Prezidentimizning tashabbuslari bilan bugungi kunda inson qadri toboro yuksalib, fuqarolarning barcha yo'nalishlardagi taklif va tashabbuslari har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy masalalardagi izchil islohotlar fikrimiz tasdig'idir.

Yana bir muhim jihatga alohida e'tibor qaratsak. Fuqarolarning dardiga quloq tutish, muammo va masalalarini hal etishni eng muhim vazifa deb bilgan holda bugungi kunga qadar aholi bilan joylarda **17 маротаба** ommaviy sayyor qabullar orqali, **1 маротаба "Халқ билан мuloqot" руки** ostidagi teleko'rsatuvi orqali murojaat qilgan jami **4 421 нafar** fuqarolarning **4 600** dan ortiq muammolari tinglanib, **3 271 таси** ijobiy hal qilindi.

Bundan tashqari, o'tkazilgan sayyor qabullarda aholining murojaatlari asosida ichki yo'llarda tosh shag'al va asfal't qoplamarini yotqizish uchun, **10 mlrd 154 mln** so'm miqdorida mablag' ajratildi, shundan **8 mlrd 238 mln** so'm bitum sotib olish uchun, **1 mlrd 916 mln** so'm yoqilg'i sotib olish uchun sarflandi.

Aholining tizimli muammolarini aniqlashda ommaviy axborot vositalari, jurnalist va blogerlar bilan to'g'ridan-to'g'ri hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Hamkorlik natijasida bloger va jurnalistlarimizdan **1 200** dan ziyod murojaat va muammoli masalalar kelib tushgan bo'lib, ushbu masalalar ijobiy hal etilib, aholining roziligi ta'minlanmoqda.

Aholi bandligi - farovonlik omili

Aholi bandligi ta'minlansa, real daromadlari ortib, oilalar farovonligi oshadi. Viloyat hududida "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"ning o'tgan 6 oyi davomida shu yo'nalishdagi amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar va yil yakuniga qadar belgilab olingan rejalgarda to'xtaladigan bo'lsak, viloyatimizda joriy yilning yanvar'-avgust oylarida **273,7 ming** ta yangi ish o'rnlari yaratilishi belgilangan bo'lib, amalda **315,3 ming** ta ish o'rnlari yaratildi.

Vaholangki, bu boradagi ishlarimizni yanada jonlantirib, yil yakuniga qadar viloyatda birgina savdo va xizmat ko'rsatish sohasida **80,5 ming** nafar aholining bandligi ta'minlashni maqsad qilganmiz.

Shu o'rinda, viloyatda mehnatga layoqatli birorta ham ishsiz fuqaro bo'lmasligi, har bir oilaning turmushi obod, real daromadlari yuqori bo'lishini maqsad qilgan holda harakat qilishimiz zarur.

Surxondaryoda "Sayxunobod tajribasi"

Viloyatni har tomonlama rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan izchil islohotlarning uzviy davomi sifatida hududda "Sayxunobod tajribasi" asosida aholi bandligi ta'minlanib, fuqarolar tadbirkorlikka jalb etilmoqda. Tijorat banklari ishtirokida har bir mahallaning ixtisoslashuvi va imkoniyatlaridan kelib chiqib, biznes-rejalari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Qolaversa, vohamizning har bir qarich oltinga teng unumdon yerida tomorqadan yuqori daromad ko'rish va qishloq xo'jaligidan samarali foydalanib, iqtisodiy salohiyatni yanada oshirish ustuvor vazifalarimizdan biridir. Mavjud yerdan samarali foydalanish bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-apreldagi "**Yoshlarga yer ajratish orqali ularni daromadini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi PQ-153-sun qaroriga asosan, Surxondaryo viloyatida joriy yilda **25 059** hektar yer maydonlarini yangidan o'zlashtirish va qayta foydalanishga kiritish belgilangan bo'lib, berilgan topshiriqni yil yakuniga qadar to'liq amalda bajaramiz.

Yer maydonlarini foydalanishga kiritish bo'yicha aniq maqad va rejalarimiz bor. O'zlashtirilgan hamda qayta foydalanishga kiritigan yer maydonlariga qishloq xo'jaligi ekinlari ekilib, yuqori hosil olish choralarini ko'rayapmiz. Xususan, "Pomir Agroklaster" MChJ XK tomonidan Jarqo'rg'on va Qumqo'rg'on tumanlarida **10 891** hektar yer maydonlari shudgor qilindi, "Oqtepa suv ombori"dan ko'tarma nasos stansiyasini qurish, hududgacha bo'lgan 21 km masofaga irrigatsiya tarmog'i tortish, suv omboridan 13 km masofadagi eng baland nuqtadan 5 hektarli qurilish ishlarida 7 km masofaga metal quvurlar tortish ishlari o'rnatilib, ya'ni 1,5 km quvur zaxirasi yaratilgan.

O'tgan yillar bilan hisoblaganda suv ta'minoti og'ir bo'lgan **64 ta** mahallalarda tomorqalarni sug'orish uchun **101 ta** quduqlarni qazish harajatlarini qoplab berish uchun **11,9 mlrd** so'm subsidiya ajratildi. Natijada **2 963 ta** xonadonning **358 hektar** tomorqa yerlarida kamida ikki marta ekin ekish va qo'shimcha daromad olish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, **59 ta** mahallaning **2,4 mingta** aholi xonadonlarida dorivor o'simliklarni kooperatsiya usulida yetishtirish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, **482 mingta** aholi xonadonidagi **49,5 ming** hektar tomorqa yer maydonlaridan samarali foydalanish va yuqori daromad olishni namuna tariqasida tashkil etish bo'yicha har bir mahalladan **5 tadan - 7 tagacha**, jami **3 863 ta** xonodon tanlab olinib, ularga jami **88,6 mlrd** so'mlik kredit mablag'lari ajratildi. O'ylaymanki, bu boradagi ishlarimiz ham ijobjiy samara berib, natijasi aholi turmushida, hududning ijobjiy ko'rsatkichlarida o'z aksini topadi.

Investitsiya - taraqqiyot garovi

Hududni har tomonlama rivojlantirishning muhim omillaridan biri bu shubhasiz hududga xorijiy investitsiya jalb qilishdir. Bu boradagi ishlarimizga to'xtaladigan bo'lsak, viloyatda investitsiya dasturi doirasida **91 ta** sanoat loyihalari ishga tushirildi. 2024-yilda **625 mln** dollar xorijiy investitsiyalar o'zlashtirishni reja qilganmiz.

Rejaga asosan, joriy yilning yanvar-avgust oylarida **494 mln** dollar o'zlashtirildi. Investitsiyalar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,5 barobar** o'sdi. O'zlashtirilgan investitsiyalarning **30 foizi** yoki **149,9 mln** dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni va **70 foizi** yoki **344,1 mln** dollari xorijiy kreditlarni tashkil qildi. Yil yakuniga qadar **131 mln** dollar miqdorida xorijiy investitsiyalar va kreditlar o'zlashtirilib, belgilangan rejani to'liq ijrosini ta'minlash choralari ko'rildi.

Joriy yilning o'zida viloyatda jami **10 ta** xorijiy davlatlarning rasmiy vakillari hamda tadbirkorlari bilan **67 marotaba** ikki tomonlama muzokoralar o'tkazilib, o'tkazilgan uchrashuvlar natijasida jami **4,7 mlrd** dollarlik xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Birgina misol, Xitoyning "Pover Uhuru Share Limited" kompaniyasi bilan qiymati **20,0 mln** dollarga teng bo'lgan Angor tumani "Bahor" MFY hududida "Top quality Brand" MChJ korxonasi bilan **jelatin ishlab chiqarish** loyihasi amalga oshiriladi. Loyiha uchun yer maydonlari tanlanib, qurilish ishlari boshlab yuborilib, uskunalar olib kelish bo'yicha xorijiy hamkorlar bilan muzokaralar olib borilmoqda.

Vengriyaning "Bankonzult" Kft. kompaniyasi hamda "Surxon sanoat qurilish" MChJ bilan birgalikda qiymati **10 mln** dollarlik **5000 bosh** chorvachilik kompleksini tashkil etish loyihasi va sutni qayta ishlash loyihasini ishga tushirish amalga oshiriladi. Yaponianing "Ark edukational systems" kompaniyasi va "Surxon sanoat qurilish"

MChJ bilan hamkorlikda qiymati **8,0 mln** dollarlik "O'zbekiston-Yaponiya texnologiya universiteti"ni tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishilgan bo'lib, hozirda axborot texnologiyalari va xizmat ko'rsatish kasb hunar kolleji binosini ta'mirlash ishlari boshlab yuborilgan.

Shuningdek, joriy yil yakuniga qadar hududiy investitsiya dasturi doirasida **325 ta** investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga **11 ming** ta yangi ish o'rinnari yaratiladi, shundan **168 ta** yangi sanoat korxonani ishga tushiramiz.

Shuni mammuniyat bilan ayta olamanki, yangi korxonalarning ishga tushirilishi bevosita aholi turmushi farovonligi, qolaversa yangidan yangi ish o'rinnari yaratilishi kafolatidir.

Qishloq xo'jaligi rivojlanyapti, sanoatdagi ulushimiz ham sezilarli oshmoqda, endilikda navbat yetishtirilayotgan mahsulot va ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni o'z xaridoriga yetkazish, yani eksport masalasi dolzab masalaga aylanadi. Eksport yo'nalishiga alohida to'xtaladigan bo'lsak, 2024-yilda **360 mln** dollarlik eksportni amalga oshirib, eksport ko'rsatkichimizni o'tgan yilga nisbatan **154 foiz** oshirishga oldimiga maqsad qilganmiz. Birgina joriy yilning yanvar-avgust oylarida **193,9 mln** dollarlik eksport amalga oshirildi.

Viloyatimizda mavjud korxonalar tomonidan **31 ta** davlatga eksport amalga oshirilgan bo'lsa, shundan **90 foizi** 5 ta davlat hissasiga to'g'ri keladi. Bular, **Rossiya, Pokiston, Xitoy, Afg'oniston va Qozog'iston.**

Bundan tashqari, **Malayziya, Peru, Singapur, Quvayt, Saudiya Arabiston** kabi davlatlar bozorlariga mahsulotlarimiz kirib borishi hisobiga jami **149,3 ming** dollarlik kalava-ip, gilos, shaftoli mahsulotlarini eksport qildik. Viloyatimizdagi **165 ta** korxona eksport faoliyatini amalga oshirgan bo'lsa, shundan, 55 tasi sanoat korxonalari, 110 tasi meva-sabzavot korxonalaridir.

Ushbu korxonalar tomonidan bir martalik tibbiyot shprislari, tibbiyot mazlari, avtomobil moylari, qurilish materiallari, dekorativ oynalar, suv inshootlari uchun ehtiyyot qismlar, olovga bardoshli g'ishtlar, qamish qirindisidan DSP, neft-gaz korxonalari uchun fakel qurilmasi va boshqa turdag'i mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. 2024-yil yakunigacha **39 ta** loyiha doirasida **252,9 mlrd** so'mlik import o'rmini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Xususan, yangilanadigan dasturga asosan gilam mahsulotlari ishlab chiqarish uchun sun'iy tola va lateks kleyi, gipsakarton mahsulotlari, koks, infuzion eritmalar, steviya dorivor o'simligini qayta ishlash va qadoqlash, agrobentofos mineral o'g'iti, elektrotexnika, charm, sho'r suvni sanoatda ishlatish uchun filtirlash uchun uskuna ishlab chiqarish kabi bir qancha yangi turdag'i import o'rnnini bosuvchi mahsulotlar o'zlashtiriladi.

“Ma’naviyat sektori”dan so’z ochsak

Davlatimiz rahbari **“Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak”** deya nihoyatda muhim va mamlakat taraqqiyoti uchun zarur g’oyani ilgari surib, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdilar.

Qachon hudud obod bo’ladi, qachon aholi turmushi farovon bo’lib, yurtga dahldrik hissi bilan yashay va kelajakka teran nigoh bilan qaray boshlasagina obod bo’ladi. Qachonki aholining ma’naviyati boy, dunyoqarashi keng, fikri teran bo’lsa, ana shundagina ko’zlangan natijaga erishish, islohotlarni to’laqonli hayotga tatbiq etish ijobjiy samara beradi.

Hurmatli Prezidentimizning 2023-yilning 16-17-noyabr kunlari **“Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda aholini sifatli ijtimoiy xizmatlar bilan ta’minalash chora-tadbirlari to’g’risida”** o’tkazgan yig’ilishida berilgan topshiriq ijrosi yuzasidan “Surxondaryo viloyatida namuna sifatida **“Ma’naviyat sektori”** joriy etildi”. Bu boradagi tizimli ishlar natijasida ma’naviy-ma’rifiy yo’nalishdagi ishlar tamomila yangicha ko’rinish kasb etib, sohada sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, viloyatdagi **965 ta** maktab, **454 ta** maktabgacha ta’lim tashkiloti, **7 ta** oliy ta’lim, **54 ta** professional ta’lim muassasasi, **360 ta** tashkilot va korxonalar hamda **724 ta** mahallalarda jami **2 564 ta** “Ma’naviyat sektori” faoliyati yo’lga qo’yildi.

Kitobxonlikni targ’ib qilish va aholining g’oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan media targ’ibot makonini yaratish maqsadida **1 011 ta** targ’ibot-tashviquot materiallari tayyorlandi.

O’ylaymanki, ma’naviyat, ziyo ularishdek muhim tashabbuslarimiz hamda amaliy harakatlarimiz xalqimiz turmushida, farzandlarimiz kelajagida o’z so’zini aytadi.

Tibbiyotda “tesha tegmagan” islohotlar

Aholi salomatligini ta’minalash, eng so’nggi tajriba va texnologiyalar asosida xizmat ko’rsatishni yo’lga qo’yish ustuvor vazifamiz sanaladi. Negaki, xalqimiz salomat bo’lsa, ishimizda unum va baraka, rivojlanish bo’laveradi. Ayni shu maqsadda aholiga ko’rsatiladigan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami sifatini oshirish hamda kasallikkarni viloyatimizning o’zida davolashni tashkil etishga asosiy e’tibor qaratmoqdamiz.

Hurmatli Prezidentimiz tashriflari davomida aholiga ko’rsatilayotgan birlamchi tizimni takomillashtirish, surunkali kasalligi mavjud bemorlarni sog’lomlashtirish, patronaj tizimini yangi bosqichda amalga oshirish borasida **“Surxondaryo tajribasi”**ni joriy etish va namuna sifatida **Angor tumanida** amalga oshirilgan ishlarni viloyatning barcha tumanlariga joriy etish vazifasi yuklatilgan bo’lib, tibbiyotning birlamchi

bug'inni rivojlantirish uchun alohida e'tibor qaratilib, Angor tumanida tajriba sifatida patronaj tizimi joriy etildi hamda bu tizim viloyatning boshqa tumanlarida ham joriy etilmoqda.

Shu bilan birga, joriy yilda viloyat ko'p tarmoqli tibbiyat markazi negizida **300 o'rini** davolash va **450 o'rini** o'quv xonalariga ega barcha yuqori texnologiyali tibbiy apparaturalarni hamda mutaxassislarni o'zida mujassamlashtirgan "**Tibbiyat klasteri**" tashkil etilmoqda.

Bundan tashqari yil yakuniga qadar **30 ta** tibbiyat muassasalari ta'mirlanadi, **50 ta** zamonaviy tez tibbiy yordam mashinalari keltiriladi, **140 mlrd** so'mlik zamonaviy tibbiy asbob va jihozlar keltirilib, aholiga tibbiy xizmatlar ko'rsatilishi yaxshilanadi.

Hususan, viloyatda yil boshidan **10 ta** oilaviy shifokorlik va oilaviy poliklinikada ta'mirlash va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi va hozirgi kunda investitsiya dasturi doirasida **5 ta** birlamchi muassasalarda rekonstruksiya ishlari olib borilmoqda va joriy yilning oktabr oylarida foydalanishga topshiriladi.

Shuningdek, **3,1 mlrd** so'mlik **117 ta** stomatologik apparaturalar va **4 ta** turdag'i tibbiy jihozlar keltirildi, bundan tashqari, **96 ta** oilaviy poliklinikalar fizioterapevtik apparatlar bilan jihozlandi.

Natijada qishloq huddudida istiqomat qiluvchi aholining tuman markazlariga qatnovining keskin kamayishiga erishilmoqda. Viloyatga **10 mlrd** so'mdan ortiq mablag' hisobiga yuqori texnologiyali tibbiy apparaturalar keltirildi. Jumladan, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Surxondaryo filialiga **Angiograf**, Fizioteriya va pulmonologiya markaziga **Artroskop**, Angor tumaniga **mamograf** apparatlarining keltirilishi aholimizga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Respublika ona va bola salomatligi markazi viloyat filiali tashkil etildi va zamonaviy tibbiy apparaturalar bilan jihozlandi. Viloyatda birinchi marotaba ochiq yurakda jarrohlik amaliyoti yo'lga qo'yilib, shu kunga qadar 50 nafarga yaqin bemorda bu amaliyot muvafaqqiyatli amalga oshirildi.

Bolalar orasida 900 nafardan ortiq tug'ma yurak nuqsoni mavjud bolalar mavjudligini inobatga olib, joriy yilda viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyat markazida **15 mlrd** so'm mablag' ajratilib, "**Bolalar kardioxirurgiya**" bo'limi tashkil etiladi.

Tibbiyat muassalarini jihozlash uchun Davlatimiz rahbari tomonidan **50 mlrd** so'm mablag' ajratilib, viloyatga zamonaviy tibbiy jihozlar olib kelinmoqda. Viloyatga **8 dona** gemodializ apparati keltirilib, **6 tasi** Denov tumaniga, 2 tasi Respublika shoshilinch tez yordam ilmiy markazi Surxondaryo filialiga o'rnatildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, bugun Surxondaryoda yangi imkoniyatlarni ishga solinib, yangi qirralarini namoyish etib, ulkan o'zgarishlar bilan dunyoga yuz tutmoqda.

Biz o'zimizda mavjud ulkan imkoniyatlardan ilm-fan, aniq rejalar asosida samarali foydalaniib, elimizga manfaat keltiradigan katta natijalar sari intilayapmiz. Ishonamanki, birgalikda oldimizda turgan yangi marralarni, albatta, zabit etamiz.

**Ulug'bek Qosimov,
Surxondaryo viloyati hokimi**

«Yangi O'zbekiston» gazetasi 202-soni, 2024-yil 5-oktabr